ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(5)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 98 sahifa,
26-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA SODERJANIE CONTENTS

MUNDARIJA

Informatika darslarida algoritmik topshiriqlar orqali 5–6-sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi 10
Muyassar Xodjiyeva Maxmudjanovna

Maktabgacha ta’limda matematikani o‘qitishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish 17
Samatova Xuvvaydo Rasulovna

Asliyat va fransuzcha tarjimalardagi toponimlarning struktur-grammatik modellari 22
Valijon Mamadjonov Alixanovich

“Tarbiya” darslarida raqamli hikoyalar orqali o‘quvchilarda halollik, mas’uliyat va mehr-oqibat fazilatlarini shakllantirish 26
Abdullayeva Surayyo Babojonovna

Kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning imkoniyatlari 32
Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida kasbiy kompetentlikni takomillashtirishda modellashtirishning o‘rni 37
Mamadaliyeva Marhabo Xolmamatovna

Raqamli keyslar asosida bo‘lajak pedagoglarning ijtimoiy-pedagogik profilaktik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish 43
Raximov Sardorbek Kabulovich

Teskari sinf modeli asosida amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlikni tashkil etish metodikasini takomillashtirish 48
Tursunbayeva Sevinch Normurod qizi, Saidov O‘tkirjon Mallayevich

Sinfni boshqarishdagi muammolar va ularning amaliy yechimlari 53
Xidirov Baxrom Dobilovich

Loyiha texnologiyasining lingvodidaktik asoslari 60
Muhammadaziz Omonov

O‘smirlarda egoizm psixodiagnostikasi 65
Karayeva Yulduz Xushbakovna

Oliy pedagogik ta’limda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning integrativ yondashuvga asoslangan metodikasi 69
Jo‘rayev Shuxratbek Maxamadaliyevich

Inklyuziv ta’lim sharoitida logopedik yordamni tashkil etishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlari 73
Azimova Dilnoza Sherzodovna

Talabalarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik omillari 76
Baxriyeva Nargiza Axmadovna

Bolalar adabiyoti vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy tanlov kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi 81
Duschanova Nilufar Sabirbayevna, Nurmetova Nazokat Baxtiyorovna

Nogiron farzandli onalarda psixologik farovonlikning himoya resurslari: nazariy-metodologik tahlil 86
Kasimova Xulkar Atabayevna

Intellektual rivojlanishida buzilishlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan korreksion-logopedik ishda vizual tayanchlar va muqobil kommunikatsiyani qo‘llash modeli 90
Raximova Dildora Saidbasitovna

Дети с комплексными нарушениями развития 93
Д. Т. Гапурова

LOYIHA TEXNOLOGIYASINING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI

Muhammadaziz Omonov
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU huzuridagi
davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi
bo'lim boshlig'i

ORCID: 0009-0008-7900-654X

Annotatsiya: Mazkur maqolada loyiha texnologiyasining lingvodidaktik asoslari, xorijiy til ta'limida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi o'rni hamda olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilinadi. Shuningdek, loyiha asosida o'qitishning mustaqil fikrlash, hamkorlik va amaliy til ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: loyiha texnologiyasi, lingvodidaktika, xorijiy til ta'limi, kommunikativ kompetensiya, interfaol ta'lim, mustaqil ta'lim, hamkorlikda o'qitish, til ko'nikmalari.

Abstract: This article examines the linguodidactic foundations of project-based learning technology and its role in developing communicative competence in foreign language education. It also analyzes scholars' perspectives on the organization of project-based learning. Particular attention is given to the potential of this approach to foster independent thinking, collaborative learning, and practical language skills among learners.

Key words: project-based learning technology, linguodidactics, foreign language education, communicative competence, interactive learning, independent learning, collaborative learning, language skills.

Аннотация: В статье анализируются лингводидактические основы проектной технологии, её роль в развитии коммуникативной компетенции в обучении иностранным языкам, а также научные подходы исследователей к организации проектной деятельности. Особое внимание уделяется возможностям проектного обучения в развитии самостоятельного мышления, навыков сотрудничества и практических языковых умений обучающихся.

Ключевые слова: проектная технология, лингводидактика, обучение иностранным языкам, коммуникативная компетенция, интерактивное обучение, самостоятельное обучение, совместная деятельность, языковые навыки.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan innovatsion o'zgarishlar xorijiy tillarni o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Globallashuv, xalqaro madaniy aloqalarning kengayishi, raqamli kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi va mehnat bozorida ko'p tillilikka bo'lgan ehtiyojning ortishi xorijiy tillarni o'qitishda kompetensiyaviy, kommunikativ va faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim modellarini yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Mazkur jarayonda loyiha texnologiyasi ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy izlanishi, til vositalaridan amaliy foydalanishi va ijtimoiy-kommunikativ faolligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik yondashuvlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Loyiha texnologiyasi ta'lim oluvchilarning muayyan muammo yoki amaliy vazifani hal etishga qaratilgan mustaqil hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishga asoslanadi. Ushbu texnologiyaning asosiy xususiyati bilimlarni izlanish, tahlil qilish, muhokama yuritish va amaliy natija yaratish jarayonida faol o'zlashtirishga ustuvor ahamiyat berilishidadir. Xorijiy tillarni o'qitishda loyiha texnologiyasidan foydalanish grammatik qoidalar va leksik birliklarni o'zlashtirish bilan birga, tilni ijtimoiy muloqot, axborot almashish, hamkorlik va madaniyatlararo munosabatlarni amalga oshirish vositasi sifatida qo'llash imkonini beradi.

Lingvodidaktika nuqtayi nazaridan loyiha texnologiyasi til o'rgatishning maqsadi, mazmuni, tamoyillari, metodlari va tashkiliy shakllarini o'zaro uyg'unlashtiruvchi kompleks pedagogik mexanizm hisoblanadi. Uning nazariy asoslarini kommunikativ yondashuv, konstruktivistik ta'lim nazariyasi, faoliyatga asoslangan o'qitish,

shaxsga yo‘naltirilgan pedagogika va ijtimoiy-madaniy ta’lim konsepsiyalari tashkil etadi. Mazkur yondashuvlar ta’lim oluvchini o‘z bilim va tajribasini faol ravishda shakllantiruvchi, muloqot jarayonida yangi ma’nolarni yaratishga qodir hamda ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida talqin etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Loyiha texnologiyasining lingvodidaktik asoslarini ilmiy jihatdan yoritishda pedagogika, psixologiya va chet tillarini o‘qitish metodikasi sohasida faoliyat olib borgan olimlarning nazariy qarashlariga murojaat qilish muhimdir. Chunki loyiha asosida ta’lim berish muayyan topshiriqni bajarish yoki yakuniy mahsulot yaratish bilan birga, ta’lim oluvchining mustaqil izlanishi, til vositalaridan kommunikativ maqsadda foydalanishi, hamkorlik qilishi va o‘z faoliyatini tahlil etishini ham qamrab oladi.

Amerikalik faylasuf va pedagog Jon Dyui ta’lim jarayonida tajriba, amaliy faoliyat va muammoli vaziyatlarni hal etishga alohida ahamiyat bergan [1]. Uning pedagogik qarashlariga ko‘ra, bilim ta’lim oluvchining faol ishtiroki, atrof-muhit bilan o‘zaro munosabati va amaliy tajribasi orqali mazmunli o‘zlashtiriladi. Ushbu yondashuv loyiha texnologiyasining nazariy asoslarini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Bizningcha, Dyuining qarashlari chet tilini o‘qitishda til materiallarini hayotiy vazifalar bilan bog‘lash zarurligini asoslashga yordam beradi. Masalan, ingliz tilida sayohat yo‘nalishini ishlab chiqish, xorijiy mamlakat madaniyati haqida axborot tayyorlash yoki ekologik muammo yuzasidan taqdimot yaratish jarayonida ta’lim oluvchi til birliklarini nazariy jihatdan o‘rganish bilan birga, ularni ma’lumot izlash, fikr almashish va o‘z nuqtayi nazarini ifodalash uchun qo‘llaydi. Natijada til o‘rganish faoliyati amaliy maqsad bilan bog‘lanadi. Bizningcha, amaliy faoliyatni aniq lingvodidaktik maqsadlar bilan uyg‘unlashtirish til kompetensiyasining izchil rivojlanishiga xizmat qiladi. Loyiha topshirig‘ini til o‘rganish maqsadlariga muvofiq ishlab chiqish, unda muayyan leksik-grammatik birliklar va kommunikativ vazifalarni nazarda tutish maqsadga muvofiq. Demak, Dyuining tajribaga asoslangan yondashuvini lingvodidaktik maqsadlar bilan uyg‘unlashtirish loyiha texnologiyasining samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi.

Amerikalik pedagog Uilyam Xerd Kilpatrik 1918-yilda e’lon qilingan “The Project Method” (“Loyiha metodi”) maqolasida ta’lim jarayonini ta’lim oluvchining maqsadli faoliyati bilan bog‘liq holda tashkil etish masalasini yoritgan. Uning yondashuvida o‘quvchining o‘z oldiga maqsad qo‘yishi, faoliyatini rejalashtirishi va belgilangan natijaga erishishga intilishi muhim o‘rin egallaydi [2]. Bizningcha, Kilpatrikning ushbu qarashlari loyiha texnologiyasini tashkil etishda ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va shaxsiy mas’uliyatini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Chet tilini o‘qitishda bu tamoyil ta’lim oluvchilarga loyiha mavzusini tanlash, vazifalarni taqsimlash, ma’lumotlarni izlash va yakuniy natijani taqdim etish jarayonlarida faol ishtirok etish imkonini berish orqali amalga oshiriladi. Masalan, “My Future Profession” mavzusidagi loyiha davomida talabalar kasbiy faoliyatga oid ma’lumotlarni ingliz tilida izlaydi, o‘zaro muhokama qiladi va kasbiy maqsadlarini xorijiy tilda ifodalaydi. Shu bilan birga, loyiha jarayonida ta’lim oluvchining mustaqilligini o‘qituvchining metodik yo‘naltirishi bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Bizning fikrimizcha, o‘qituvchi loyiha maqsadi, bajarish bosqichlari, til vositalari va baholash mezonlarini oldindan belgilashi lozim. Demak, Kilpatrikning maqsadli faoliyatga asoslangan yondashuvi o‘qituvchining metodik rahbarligi bilan uyg‘unlashganda ta’lim natijalarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Chet tillarini o‘qitish metodikasi sohasida faoliyat olib borgan Tom Xatchinson loyiha faoliyatini kommunikativ yondashuvning muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqadi. Uning fikricha, loyiha ishi ta’lim oluvchilarning o‘rganish jarayoniga bo‘lgan motivatsiyasi va o‘rganilayotgan tilning ular uchun qanchalik mazmunli ekanligi bilan chambarchas bog‘liq [3]. Loyiha topshirig‘i ta’lim oluvchining qiziqishlari va ehtiyojlariga mos kelganda, tilni o‘rganish jarayoni yanada mazmunli tus oladi. Bizningcha, Xatchinsonning qarashlari loyiha texnologiyasining lingvodidaktik mohiyatini ochib berishda alohida ahamiyatga ega. Chunki til o‘rganish samaradorligi o‘quv materialining hajmi va mashqlar soni bilan birga, o‘zlashtirilgan bilimlardan amaliy foydalanish imkoniyatlariga ham bog‘liq. Ta’lim oluvchining o‘rgangan til vositalaridan qanday maqsadda foydalanishi, ularni shaxsiy tajribasi va kasbiy ehtiyojlari bilan qay darajada bog‘lay olishi ham muhimdir. Shu sababli loyiha mavzularini tanlashda ta’lim oluvchilarning qiziqishlari, ta’lim yo‘nalishi va kelajakdagi kasbiy faoliyatini hisobga olish maqsadga muvofiq. Masalan, iqtisodiyot yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun xorijiy kompaniyalar faoliyati, marketing strategiyalari yoki xalqaro iqtisodiy hamkorlikka oid loyiha topshiriqlarini ishlab chiqish mumkin. Bunday faoliyat davomida talabalar kasbiy terminologiyani o‘zlashtiradi, ma’lumotlarni tahlil qiladi va o‘z xulosalarini xorijiy tilda bayon etadi. Natijada loyiha texnologiyasi umumiy til kompetensiyasi bilan bir qatorda, kasbiy-kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Qiziqish va motivatsiyani aniq metodik maqsadlar bilan uyg‘unlashtirish loyiha faoliyatining ta’limiy imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Loyiha mazmunini ta’lim dasturidagi maqsadlar va kutilayotgan til natijalari bilan bog‘lash muhimdir. Bu ta’lim oluvchilarning qiziqarli mavzularni o‘rganish jarayonida til vositalaridan maqsadli foydalanishiga va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishiga yordam beradi.

Amerikalik til ta'limi tadqiqotchisi Fredrika Stoller loyiha ishlarini til o'rganish va mazmunni o'zlashtirishni birlashtiruvchi ta'lim vositasi sifatida o'rgangan [4]. Uning "Project Work: A Means to Promote Language and Content" nomli tadqiqotida loyiha faoliyatini mazmuniy ta'lim bilan uyg'unlashtirish, ta'lim oluvchilarning faol ishtirokini ta'minlash, hamkorlikda o'rganish va muammolarni hal etishga yo'naltirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda loyihani rejalashtirish, tilga oid tayyorgarlikni tashkil etish, axborot to'plash, uni tahlil qilish va yakuniy natijani taqdim etish bosqichlariga e'tibor qaratiladi. Stollerning yondashuvi loyiha texnologiyasini chet tili mashg'ulotlariga tatbiq etishning metodik mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, til va mazmun integratsiyasi ta'lim oluvchilarning o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish faoliyatlarini o'zaro bog'liq holda rivojlantirish imkonini beradi. Masalan, "Environmental Problems and Their Solutions" mavzusidagi loyiha davomida talabalar ekologik muammolarga oid inglizcha matnlarni o'qiydi, audio va videomateriallarni tinglaydi, ma'lumotlarni yozma shaklda umumlashtiradi hamda o'z takliflarini og'zaki taqdim etadi. Mazkur faoliyatning lingvodidaktik qiymati shundaki, til birliklari mazmunli kommunikativ vazifalarni bajarish jarayonida amaliy qo'llanilib, o'quv mashqlarida egallangan bilimlar bilan mustahkamlanadi. Shu bilan birga, bizningcha, integratsiyalashgan faoliyatni tashkil etishda tilga oid tayanchlarni oldindan belgilash muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi loyiha mavzusiga mos leksik birliklar, grammatik konstruksiyalar, matn tuzish namunalari va taqdimot uchun zarur nutq qoliplarini taqdim etishi mumkin. Bu ta'lim oluvchilarga mazmunni o'rganish bilan bir qatorda, til vositalarini ham ongli ravishda o'zlashtirishga yordam beradi.

Diana Frid-Busning "Project Work" nomli metodik qo'llanmasida loyiha faoliyati chet tilini mazmunli o'rganish, ta'lim oluvchilarning mustaqilligini rivojlantirish va hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish vositasi sifatida yoritilgan [5]. Muallif loyiha faoliyatining ta'lim oluvchilarni o'rganish jarayoniga faol jalb etishi, ularning shaxsiy ishtiroki va yakuniy mahsulot yaratishga bo'lgan intilishini kuchaytirishi mumkinligini ta'kidlaydi. Shuningdek, loyiha ishlari turli darajadagi ta'lim oluvchilar bilan ishlash va til ko'nikmalarini integratsiyalash uchun moslashuvchan imkoniyatlar yaratadi. Frid-Busning qarashlari loyiha texnologiyasini individual va guruhli faoliyatni uyg'unlashtirgan holda tashkil etish zarurligini asoslaydi. Guruhda ishlash ta'lim oluvchilarga fikr almashish, vazifalarni kelishib bajarish va o'zaro yordam ko'rsatish imkonini bersa, individual topshiriqlar har bir ishtirokchining shaxsiy mas'uliyatini aniqlashga xizmat qiladi. Shu bois loyiha jarayonida jamoaviy natija bilan bir qatorda, har bir ta'lim oluvchining individual hissasini ham hisobga olish muhimdir. Guruhli faoliyat samaradorligini oshirishda vazifalarni ishtirokchilar o'rtasida mutanosib taqsimlash va barcha talabalarning faol ishtirokini ta'minlash alohida ahamiyatga ega. Bizningcha, buning uchun har bir ishtirokchining vazifasi, bajarish muddati va kutilayotgan natijasi aniq belgilanishi, loyiha davomida oraliq nazorat hamda individual refleksiya tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

E. G. Azimov va A. N. Shchukinning metodik terminlarga bag'ishlangan lug'ati til o'qitish nazariyasi va amaliyotiga oid tushunchalarni tizimlashtiruvchi muhim manbalardan biridir [6]. Mualliflar lingvodidaktik terminologiyani til o'qitish metodikasi, pedagogika, psixologiya va tilshunoslik bilan bog'liq holda yoritadilar. Ushbu lug'at til ta'limiga oid tushunchalarning mazmunini aniqlashtirish va ularni ilmiy tadqiqotlarda izchil qo'llash uchun nazariy asos yaratadi.

Bizningcha, Azimov va Shchukinning ilmiy-metodik yondashuvi loyiha texnologiyasini lingvodidaktik nuqtayi nazardan tahlil qilishda terminologik aniqlikni ta'minlash uchun muhimdir. Chunki loyiha texnologiyasi, loyiha metodi, kommunikativ yondashuv, mustaqil ta'lim va lingvodidaktik salohiyat tushunchalarini o'zaro farqlash tadqiqotning nazariy izchilligini belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan, loyiha texnologiyasini o'qitish usuli bilan birga, maqsad, mazmun, faoliyat bosqichlari, ta'lim vositalari, pedagogik boshqaruv va baholash mezonlarini o'zaro bog'laydigan metodik tizim sifatida talqin etish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv loyihani tashkil etish jarayonidagi har bir tarkibiy qismning lingvodidaktik vazifasini aniq belgilash imkonini beradi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan olimlarning qarashlari loyiha texnologiyasining pedagogik va lingvodidaktik asoslarini turli jihatlardan yoritadi. Jon Dyui ta'limda tajriba va amaliy faoliyatning ahamiyatini ochib bersa, Uilyam Xerd Kilpatrik ta'lim oluvchining maqsadli va mustaqil faoliyatiga urg'u beradi. Tom Xatchinson loyiha ishining motivatsiya va kommunikativ mazmun bilan aloqasini ko'rsatadi, Fredrika Stoller esa til o'rganish bilan mazmunni o'zlashtirishni integratsiyalash masalasini yoritadi. Diana Frid-Busning yondashuvi mustaqil va hamkorlikdagi faoliyat imkoniyatlarini ochib bersa, Azimov va Shchukinning ishlari lingvodidaktik tushunchalarni nazariy jihatdan izchil qo'llashga yordam beradi. Bizningcha, ushbu qarashlarni umumlashtirish asosida loyiha texnologiyasining lingvodidaktik mohiyatini quyidagicha izohlash mumkin. Bu - ta'lim oluvchilarning muayyan kommunikativ yoki kasbiy vazifani bajarish jarayonida til bilimlarini amaliy qo'llashi, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilishi, hamkorlikda faoliyat olib borishi hamda yakuniy natijani belgilangan mezonlar asosida taqdim etishini ta'minlovchi maqsadli pedagogik tizimdir. Loyiha texnologiyasining samaradorligi loyiha mahsulotining yaratilishi bilan birga, ta'lim oluvchilarning til vositalaridan maqsadli foydalanishi, kommunikativ faoliyatda ishtirok etishi, mustaqil qaror qabul qilishi va o'z faoliyatini tahlil qila olishi orqali ham namoyon bo'ladi. Shu sababli tadqiqot doirasida loyiha texnologiyasini qo'llashning mazmuniy, jarayonli va natijaviy jihatlarini o'zaro bog'liq holda o'rganish muhim deb hisoblaymiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda loyiha texnologiyasining lingvodidaktik asoslarini o‘rganish va uning xorijiy tillarni o‘qitishdagi pedagogik imkoniyatlarini aniqlash maqsadida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy taqqoslash, tizimlashtirish va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Qiyosiy tahlil orqali J. Dyui, U. Kilpatrik, T. Xatchinson, F. Stoller, D. Frid-Bus hamda E. G. Azimov va A. N. Shchukinning ilmiy qarashlari o‘zaro taqqoslanib, ularning umumiy va o‘ziga xos jihatlari aniqlandi. Tizimlashtirish va umumlashtirish asosida loyiha texnologiyasining kommunikativlik, mustaqillik, hamkorlik, integrativlik va refleksivlik tamoyillari ajratib ko‘rsatildi. Olingan nazariy xulosalar loyiha texnologiyasining xorijiy til ta’limidagi lingvodidaktik ahamiyatini asoslashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Loyiha texnologiyasining lingvodidaktik asoslarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mazkur pedagogik yondashuv xorijiy tillarni o‘qitishda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish, ta’lim oluvchilarning mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirish hamda til bilimlarini amaliy kommunikativ vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Loyiha texnologiyasi til o‘rganish jarayonini bilimlarni o‘zlashtirish bilan birga, real kommunikativ vazifalarni bajarish, muammolarni hal etish va amaliy natijalar yaratishga asoslangan ta’lim modeli sifatida rivojlantirishi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqot doirasida ko‘rib chiqilgan nazariy yondashuvlar loyiha texnologiyasining lingvodidaktik mohiyati kommunikativlik, faoliyatga yo‘naltirilganlik, integrativlik, mustaqillik, hamkorlik va refleksivlik tamoyillari bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ushbu tamoyillar ta’lim oluvchilarning til kompetensiyalarini rivojlantirish bilan birga, ularning ijtimoiy faolligi, ijodiy tafakkuri, axborot bilan ishlash madaniyati va muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirish uchun pedagogik sharoit yaratadi. Ayniqsa, kommunikativ yondashuv va konstruktivistik ta’lim nazariyasining uyg‘unlashuvi loyiha faoliyatining ilmiy-metodologik asoslarini mustahkamlaydi.

Loyiha texnologiyasining muhim afzalliklaridan biri xorijiy tilni o‘rganishda nutq faoliyatining asosiy turlarini o‘zaro bog‘liq holda rivojlantirish imkoniyatidir. Loyiha topshiriqlarini bajarish davomida o‘quvchilar autentik matnlarni o‘qiydi, turli manbalardan axborot to‘playdi, o‘zaro fikr almashadi, og‘zaki taqdimotlar tayyorlaydi va yozma mahsulotlar yaratadi. Natijada tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalari yagona kommunikativ faoliyat doirasida takomillashishi mumkin. Bu jarayon til birliklarini o‘zlashtirish bilan birga, ularni mazmunli nutqiy vaziyatlarda ongli va maqsadli qo‘llashga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, loyiha texnologiyasi ta’lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ularning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos ta’lim faoliyatini tashkil etish imkonini beradi. Loyiha mavzularini tanlashda o‘quvchilarning til bilish darajasi, bilim va tajribasi, yosh xususiyatlari hamda ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarini inobatga olish ta’lim jarayonining shaxsga yo‘naltirilganligini ta’minlaydi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi subyektiv faolligini oshiradi, o‘z-o‘zini boshqarish va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Loyiha faoliyatida hamkorlikdagi ta’limning alohida o‘rin tutishi ham muhim ilmiy xulosalardan biridir. Guruhli va juftlikdagi topshiriqlarni bajarish jarayonida ta’lim oluvchilar o‘zaro muloqot qiladi, vazifalarni taqsimlaydi, fikrlarini asoslaydi va umumiy natijaga erishish uchun hamkorlik qiladi. Mazkur jarayon til kompetensiyalari bilan bir qatorda, ijtimoiy-kommunikativ ko‘nikmalar, mas’uliyat, o‘zaro hurmat va jamoada ishlash madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan loyiha texnologiyasi xorijiy tillarni o‘qitishning lingvistik maqsadlarini umumiy pedagogik va ijtimoiy rivojlanish vazifalari bilan uyg‘unlashtiradi.

Raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan loyiha faoliyati zamonaviy lingvodidaktikaning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Elektron ta’lim platformalari, multimedia resurslari, virtual muloqot vositalari va raqamli taqdimot dasturlaridan foydalanish loyiha topshiriqlarining mazmunini boyitish, ta’lim oluvchilarning axborot savodxonligini oshirish hamda xorijiy tilda kommunikativ faoliyat yuritish imkoniyatlarini kengaytiradi. Raqamli vositalardan foydalanish samaradorligini yanada oshirishda ularni aniq lingvodidaktik maqsadlarga muvofiq tanlash va metodik jihatdan asoslangan holda qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Loyiha texnologiyasining ta’limiy samaradorligini ta’minlashda o‘qituvchining metodik tayyorgarligi va pedagogik boshqaruv faoliyati muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi loyiha jarayonida bilim berish bilan birga, yo‘naltiruvchi, maslahatchi, tashkilotchi va baholovchi vazifalarini bajaradi. Shu sababli loyiha topshiriqlarining maqsadini aniq belgilash, ularni bosqichma-bosqich tashkil etish, ta’lim oluvchilarga zarur lingvistik yordam ko‘rsatish hamda jarayon va yakuniy natijalarni mezonlar asosida baholash muhim metodik talablar sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, loyiha texnologiyasining turli ta'lim sharoitlaridagi samaradorligini oshirish uchun mavjud pedagogik imkoniyatlar va ta'lim oluvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish muhimdir. Uning natijadorligi ta'lim oluvchilarning tayyorgarlik darajasi, o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi, o'quv dasturi mazmuni, vaqt resurslari, moddiy-texnik imkoniyatlar va baholash tizimiga bog'liq. Shuning uchun loyiha texnologiyasini xorijiy tillarni o'qitish amaliyotiga tatbiq etishda an'anaviy hamda boshqa innovatsion metodlar bilan uyg'unlashtirish, shuningdek, uning samaradorligini tajriba-sinov ishlari asosida baholash maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, loyiha texnologiyasi xorijiy tillarni o'qitishda kommunikativ, kognitiv, ijtimoiy-madaniy va refleksiv kompetensiyalarni kompleks rivojlantirishga yo'naltirilgan muhim lingvodidaktik yondashuv hisoblanadi. Uning nazariy asoslarini chuqur o'rganish va amaliy qo'llash mexanizmlarini takomillashtirish til ta'limining mazmunini boyitish, o'quvchilarning mustaqil hamda hamkorlikdagi faoliyatini faollashtirish va ta'lim natijalarining amaliy yo'naltirilganligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Kelgusidagi tadqiqotlarda loyiha texnologiyasining turli yosh va til bilish darajasidagi ta'lim oluvchilarning kommunikativ kompetensiyasiga ta'sirini eksperimental o'rganish, baholash mezonlarini takomillashtirish hamda raqamli ta'lim muhitida qo'llashning samarali modellarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938.
2. Kilpatrick W. H. The Project Method // Teachers College Record. – 1918. – Vol. 19, No. 4. – P. 1–5.
3. Hutchinson T. Project Work in Language Learning // The Language Teacher. – 1996. – Vol. 20, No. 9.
4. Stoller F. L. Project Work: A Means to Promote Language and Content // Methodology in Language Teaching: An Anthology of Current Practice / Ed. by J. C. Richards, W. A. Renandya. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002. – P. 107–120.
5. Fried-Booth D. L. Project Work. 2nd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2002.
6. Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий: теория и практика обучения языкам. – Москва: ИКАР, 2010.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.